

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL



Avgust №8, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:

3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 551-sahifa.

E'lon qilishga 2026-yil 28-avgustda
ruxsat etildi.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

ULUG'BEK NURULLAYEV

Tomorqa xo'jaliklari faoliyatidan olingan daromadga noqishloq xo'jaligi faoliyati ta'sirini iqtisodiy baholash.....8

RO'ZMAMATOV ABBOS TOLIBJON O'G'LI

O'zbekistonda chakana savdo tarmog'ining tarkibiy o'zgarishlari va savdo xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlari.....17

АЙТМУРАТОВА УЛБИКЕ ЖАЛГАСОВНА

Развитие методических подходов к комплексной оценке эффективности привлечения финансирования акционерными обществами через рынок капитала.....26

BAXRONOVA NILUFAR SUNNAT QIZI

Raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyot integratsiyasining innovatsion iqtisodiy o'sishga ta'sir mexanizmlari.....36

KARAMATOVA NOIBA HUSNITDINOVNA

Korxonada ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirish yo'nalishlari.....44

VEI ZHIBO

Madaniy meros turizmida raqamli kommunikatsiya, jamoatchilik ishtiroki va inklyuziv o'sish – Samarqand misolida.....53

ISMIGUL ABDULLAYEVA

Improving data management systems of small and medium enterprises through cloud technologies in the digital economy.....65

ABDURAYIMOV KAMOLIDDIN XURRAM O'G'LI

Surxondaryo viloyatida qishloq xo'jaligining amaldagi iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....70

KABILOVA SHAHNOZA JURAYEVNA, XALIMOV JAVLON

SHAXRIYOROVICH
Iste'molchilarga xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik biznesni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari: hududiy differensiatsiya tahlili (Qashqadaryo viloyati misolida).....80

UMAROVA SHAXLO ABDUVALIYEVNA

Strategik moliyaviy hisob tizimini tashkil etishning konseptual yondashuvlari va tarkibiy elementlari.....87

HOU MANPING, CUI HUIFANG

Lessons from China for ecological protection and restoration of the Aral sea basin.....102

SHADMANOV ZUHRIDDIN ZOKIRXODJAYEVICH

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlanishini baholash.....113

BADALOVA NIGORA NORKULOVNA

Davlat boshqaruvini raqamlashtirishning xorijiy modellari va ularni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari.....126





ZHU YU MING

The collaborative logic of digital transformation of China's tourism infrastructure.....137

ИСАЕВА АЙЖАН

Цифровая трансформация туризма как механизм структурной диверсификации сферы услуг.....152

KARIMOVA MAFTUNA NURDINOVNA

“Yashil” qo‘shilgan qiymat: organik, halol va karbon-neytral sertifikatlarining O‘zbekiston mahsulotlari narxiga ta’siri.....166

XABIBULLAYEV ANVAR SHOVIKAT O‘G‘LI

Zamonaviy boshqaruv modellari asosida aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy menejment tizimini takomillashtirish.....177

SAPAYEV SINDOR QADAMBOY O‘G‘LI

Mintaqaviy innovatsion infratuzilma subyektlari o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik rivojlanishi: qiyosiy tahlili.....185

SAIDOVA DILDORA NURMATOVNA

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida oziq-ovqat xavfsizligining ta’minlanishi.....194

UMAROV AZIZJON AZAMJON O‘G‘LI

Risklarning kichik biznes korxonalariga iqtisodiy ta’siri.....201

AZAMQULOV NURBEK ULUG‘BEK O‘G‘LI

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishning hozirgi holati hamda bug‘doy yetishtirish samaradorligini oshirish yo‘llari.....207

BAXTIYAROVA SABOHAT BAXTIYAROVNA

Raqamli transformatsiya sharoitida rahbarlarning strategik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish.....214

BOZOROVA MUXABBAT TO‘XTAYEVNA

Davr xarajatlari hisobini takomillashtirish.....221

DJURAYEV OLIMJON NARKULOVICH

Xizmatlar iqtisodiyotida mehnatni ratsional tashkil etishning zamonaviy konsepsiyalari va iqtisodiy samaradorlikni oshirish mexanizmlari.....230

KURBONOV BAXODIR ERGASHEVICH

Transfert narxlarning iqtisodiy mohiyati va ularni shakllantirishning nazariy-uslubiy asoslari.....243

FAXRIDDINOV ABDULHAKIM ZIYAUDDINOVICH

Yangi O‘zbekistonda sabzavotchilik tarmog‘ini rivojlantirish istiqbollari.....249

OMONQULOV BEKZOD TURSUNALI O‘G‘LI

Kichik biznesning innovatsion rivojlanish strategiyasini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari.....256

KARIMOV INOMJON ORTIKBAEVICH

Qurilish sanoatida investitsiyalarni jalb qilishni boshqarishning xorijiy modellari va ularni o‘zbekiston amaliyotiga moslashtirish imkoniyatlari.....267

TURDIQULOV FARRUX RAVSHANJON O‘G‘LI

O‘zbekistonda kichik biznesning bandlik va YAIMdagi ulushlari nomutanosibligi: milliy va hududiy statistik tahlili.....277





G'YOSOV ILXOM KARIMOVICH

Qurilish sanoati korxonalarida korporativ boshqaruv va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning metodologik asoslari.....287

BOLLIYEV SHAMSIDDIN TURSUNMAMATOVICH

Kichik biznes sohasiga investitsiyalarni jalb etishning ilmiy-nazariy asoslari....300

SHARIPOV LAZIZ AKTAM O'G'LI

Comparing parametric and non-parametric efficiency measurement under data quality constraints: stochastic frontier and dea evidence from smallholder sweet sorghum farms in Uzbekistan.....306

KARIMOVA MUHAYYO ORIF QIZI

Qandolatchilik mahsulotlarining sifat nazoratini oshirishda statistik usullardan foydalanishni takomillashtirish.....314

URALOV ELSHOD SIROJIDDIN O'G'LI

Mintaqada intellektual va texnologik salohiyat tushunchasining tatbiq etish.....322

MOVLONOVA DILRABO NOMOZ QIZI

Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda klasterlash mexanizmlarini takomillashtirishning konseptual asoslari.....328

JO'RAYEVA SHAXLO UCHQUN QIZI

Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashning aholi bandligiga ta'siri.....340

AXMEDOVA NAFISA AMIRDDIN QIZI

Innovatsion rivojlanish sharoitida O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish.....347

MIRZAYEV MUZAFFAR MAXMUDOVICH

Yaponiya-O'zbekiston investitsiya hamkorligi: institutsional tuzilma va evolyutsiya bosqichlar.....356

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

MASHRAPOV AHLIDDIN TURSUNALIEVICH

Farg'ona viloyatining unumdorligi past tuproq – iqlim sharoiti uchun mos, yuqori hosilli o'rik navlarini tanlash.....366

ESHPUATOV DOSTONBEK BOXODIR O'G'LI

Iqlim o'zgarishining paxta va bug'doy hosildorligiga ta'siri: O'zbekiston tumanlari bo'yicha panel ma'lumotlar tahlili (2015–2024).....371

RUZMETOV UMID ISMAILOVICH, ULUGOVA SAFARGUL FAYZULLAEVNA

Toshkent viloyati Bo'stonlik tumani sharoitida dorivor enotera (Oenothera Biennis L.) o'simligini yetishtirish uchun tuproqlarning mexanik tarkibi va agrokimyoviy xususiyatlarini baholash.....385

ПАВШАНОВА Н.А.

Урожайность и продуктивность совмещённых посевов сортов маша с хлопчатником в условиях Ташкентской области.....391

CHARIEVA XILAL DO'STMURATOVNA, TADJIEV MARDONQUL, DJURAEV BAYNIYAZ CHARIEVICH, BEGIMQULOV BEHZOD O'ROLOVICH

Ingichka tolali g'o'zaning konkurs nav sinovi ko'chatzoridagi navlar va tizmalarining qimmatli xo'jalik belgilari.....398





KICHIK BIZNES SOHASIGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

BOLLIYEV SHAMSIDDIN TURSUNMAMATOVICH

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute mustaqil izlanuvchisi

E-mail: shamsiddinbollijev@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0002-4828-0542>

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik biznes sohasiga investitsiyalarni jalb etishning ilmiy-nazariy asoslari, investitsion faollikka ta'sir etuvchi omillar hamda investitsiya muhitini takomillashtirish yo'nalishlari tahlil qilingan. Shuningdek, kichik biznesni moliyalashtirishning zamonaviy mexanizmlari va investitsion jozibadorlikni oshirishning nazariy yondashuvlari yoritilgan. Tadqiqot natijasida kichik biznesga investitsiyalarni jalb etish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, kichik biznes, sog'lom raqobat, investitsion muhit, investitsiya siyosati, tadbirkorlik, moliyalashtirish, iqtisodiy rivojlanish.

Аннотация. В статье исследуются научно-теоретические основы привлечения инвестиций в сферу малого бизнеса. Проанализированы факторы, влияющие на инвестиционную активность, а также основные направления совершенствования инвестиционной среды. Рассмотрены современные механизмы финансирования малого бизнеса и теоретические подходы к повышению инвестиционной привлекательности. По результатам исследования разработаны научно-практические рекомендации, направленные на повышение эффективности привлечения инвестиций в сферу малого бизнеса.

Ключевые слова: инвестиции, малый бизнес, здоровая конкуренция, инвестиционный климат, инвестиционная политика, предпринимательство, финансирование, экономическое развитие.

Abstract. This article examines the scientific and theoretical foundations of attracting investment to the small business sector. It analyzes the key factors influencing investment activity and the main directions for improving the investment environment. The study also highlights modern financing mechanisms for small businesses and theoretical approaches to increasing investment attractiveness. Based on the findings, scientific and practical recommendations are proposed to enhance the efficiency of investment attraction in the small business sector.

Keywords: investment, small business, healthy competition, investment climate, investment policy, entrepreneurship, financing, economic development.

KIRISH

Jahonda kichik biznes subyektlariga investitsiyalarni jalb etish orqali sohani rivojlantirish, sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, zamonaviy kichik korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulot tarkibida kichik biznes sohasining ulushi 55-70 % ni tashkil etmoqda. Shuningdek, iqtisodiyotdagi bandlar ulushining 60,0 % dan ziyodi, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmining 40,0 % i kichik korxonalar ulushiga to'g'ri kelmoqda". Bugungi kunda kichik biznes korxonalari samaradorligi va ularga investitsiyalarni izchil jalb etish kabi muammolarga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Jahonda kichik va xususiy biznes sohasini rivojlantirish borasidagi tadqiqotlarda kichik korxonalarni samarali rivojlantirish borasidagi tadqiqotlarga ustuvor darajada qaralmoqda. Ayni paytda faoliyat samaradorligini baholash, kichik korxonalarni boshqarish usullarini





takomillashtirish, kichik biznes subyektlari faoliyatini investitsiyalash va kreditlash, kichik tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlardagi tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda kichik biznes iqtisodiyoti rivojlanishi, innovatsion iqtisodiyot shakllanishi, investitsiya resurslarlaridan samarali foydalanish, raqobatning shakllanishi, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik masalalarining fundamental asoslari xorijlik olimlar, jumladan, J.M.Keyns, M.Porter, Y.A.Shumpeter, A.Marshall, M.Fisher, A.Pigu, P.Druker, K.X.Xaksever, B.R.Render, R.S.Rassel, R.G.Merdik, R.D.Erenberg va boshqa olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Ammo yuqorida keltirilgan olimlarning asarlarida kichik biznes faoliyatini rivojlantirish va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ayrim jihatlari o'rganilgan. Shuningdek, kichik korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish masalalari kompleks tadqiqot sifatida qisman o'z aksini topgan. Hozirgi vaqtda kichik korxonalar faoliyatiga investitsiyalarni jalb etish orqali samaradorligini oshirish bilan bog'liq tadqiqotlar yetarli darajada emasligi ushbu mavzuda chuqur ilmiy-uslubiy izlanishlarni amalga oshirishni zarurat etadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik milliy xo'jalik tizimining eng faol, moslashuvchan va dinamik bo'g'ini sifatida e'tirof etiladi. Aynan kichik biznes subyektlari yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish, iste'mol bozorini zarur tovar va xizmatlar bilan to'ldirish, hududlarni mutanosib rivojlantirish hamda innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etishda yetakchi rol o'ynaydi. Ushbu sohaning iqtisodiy mohiyati shundan iboratki, u nisbatan kam kapital va resurs sarfi bilan tez tashkil etiladi, bozor konyunkturasiidagi o'zgarishlarga operativ moslashadi va yirik korxonalar e'tibor qaratmaydigan tor bozor segmentlarini to'ldiradi. Shuningdek, kichik korxonalar mahalliy xomashyo va mehnat resurslaridan samarali foydalanish, qishloq joylarida ishbilarmonlik faolligini oshirish hamda aholining keng qatlamlarini iqtisodiy faoliyatga jalb etish imkonini beradi. Shu bois jahonning rivojlangan davlatlarida kichik va o'rta biznes yalpi ichki mahsulotning yarmidan ko'pini hamda ish bilan band aholining asosiy qismini ta'minlaydi. O'zbekiston uchun ham bu soha iqtisodiy o'sishning muhim manbai, aholi bandligini ta'minlashning samarali vositasi va o'rta sinfni shakllantirishning asosiy omili hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan kichik biznesning qanchalik rivojlanganligi, uning innovatsion salohiyati hamda investitsiya resurslari bilan ta'minlanish darajasiga bog'liqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kichik biznes sohasiga investitsiyalarni jalb etishning ilmiy-nazariy asoslarini yoritish hamda investitsion faollikka ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida kompleks ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Xususan, ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullari qo'llanildi.

Tadqiqotning nazariy asosini investitsiyalar, kichik biznesni rivojlantirish va investitsion muhit masalalariga oid mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari,





iqtisodiy nazariyalar hamda normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etdi. Tadqiqot davomida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, induktiv va deduktiv yondashuv, abstraksiyalash, umumlashtirish hamda mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, kichik biznesga investitsiyalarni jalb etish amaliyotini baholashda statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, dinamik qatorlarni o'rganish va iqtisodiy ko'rsatkichlarni taqqoslash usullari qo'llanildi. Olingan natijalar asosida investitsion faollikka ta'sir qiluvchi asosiy omillar aniqlandi hamda ularning kichik biznes rivojlanishiga ta'siri ilmiy jihatdan baholandi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash maqsadida ma'lumotlarni o'zaro solishtirish, ilmiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish va xulosalarni mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot yakunida olingan ilmiy natijalar asosida kichik biznes sohasiga investitsiyalarni jalb etish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznesni investitsiyalashning manbalari va shakllari xilma-xildir. An'anaviy bank krediti bilan bir qatorda lizing, mikromoliyalashtirish, faktoring, venchur kapitali, qimmatli qog'ozlar bozori hamda davlatning maxsus dasturlari va jamg'armalari kichik korxonalar uchun moliyaviy resurs manbai bo'lib xizmat qiladi. So'nggi yillarda O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarini imtiyozli kreditlash, ularga subsidiya va kompensatsiyalar berish, kafolat jamg'armalari faoliyatini yo'lga qo'yish hamda xalqaro moliya institutlari mablag'larini jalb etish amaliyoti kengaytirildi. Shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish va aholining investitsiya jarayonlaridagi ishtirokini kengaytirish orqali ichki investitsiya resurslarini safarbar etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyalanishi kichik biznesning investitsiyalarga bo'lgan ehtiyojini turli kanallar orqali qondirish va sohaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash imkonini beradi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Valyuta siyosatining liberallashtirilishi, soliq ma'muriyatchiligining soddalashtirilishi, investorlar huquqlarini himoya qilish kafolatlarining mustahkamlanishi va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining keng joriy etilishi mamlakatning investitsion jozibadorligini sezilarli oshirdi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida investitsiya muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni rivojlantirish raqamli iqtisodiyot bilan bir qatorda asosiy ustun sifatida belgilangan. Strategiya doirasida mamlakat iqtisodiyotiga jami 250 milliard dollarlik investitsiyalarni, jumladan 110 milliard dollar xorijiy investitsiyani o'zlashtirish, asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar hajmining yillik o'rtacha 7 foiz atrofida o'sishini ta'minlash hamda kichik va o'rta biznesning xalqaro bozorlarga chiqishini kengaytirish, mikromoliyalashtirishni rivojlantirish, innovatsiyalar va startaplarni qo'llab-quvvatlash maqsadlari ko'zda tutilgan. Bu islohotlarning samarasi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda ham aks etmoqda: 2023–2025-yillarda yalpi ichki mahsulotning nominal hajmi 107,5 milliard dollardan 140 milliard dollarga





oshgan, ishsizlik darajasi 6,8 foizdan 4,9 foizga, kambag'allik darajasi esa 11 foizdan 6,8 foizga kamaygan. Ushbu natijalar mamlakatda kichik biznesni investitsiyalash uchun qulay institutsional va makroiqtisodiy muhit shakllanayotganidan dalolat beradi.

Zamonaviy sharoitda kichik biznesga investitsiyalarni jalb etish raqamli iqtisodiyot va innovatsion rivojlanish bilan uzviy bog'liqdir. Raqamli texnologiyalarning kichik biznesga joriy etilishi yangi bozorlarga chiqish, xarajatlarni kamaytirish va mahsulot raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi, bu esa investorlar uchun sohaning jozibadorligini kuchaytiradi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan bo'lib, startaplar, texnoparklar va innovatsion loyihalarga investitsiyalarni jalb etish ko'zda tutilgan. Innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan investitsiyalar kichik korxonalarning intellektual salohiyatini oshirib, ularni yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltiradi. Shu tariqa investitsiyalar kichik biznesning nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatidan ham rivojlanishini ta'minlovchi muhim omilga aylanadi.

2025-yil yakunlariga ko'ra investitsiya jarayonlaridagi ijobiy tendensiyalar yanada mustahkamlandi. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 591,1 trln so'mni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 10,5 foizga o'sgan. O'sishning asosiy manbai to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'lib, ularning hajmi bir yil ichida 46,9 foizga ko'paygan va jami investitsiyalardagi ulushi 40,5 foizga yetgan. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlarning umumiy ulushi esa 65,9 foizni tashkil etgan. Investitsiyalar tarkibida korxonalarning o'z mablag'lari 15,3 foizni, aholi mablag'lari 6,3 foizni, respublika budjeti mablag'lari 4,7 foizni tashkil etib, moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyalanib borayotgani kuzatildi. Shu bilan birga, mamlakatning tashqi savdo aylanmasi 2025-yilda 81,2 milliard dollarga yetib, 20,7 foizga oshgan, eksport 24 foizga o'sib 33,8 milliard dollarni tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkichlar investitsiyalarning iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi hal qiluvchi rolini va xorijiy kapitalning milliy iqtisodiyotga, jumladan kichik biznes sohasiga, jadal kirib kelayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, kichik biznes sohasiga investitsiyalarni jalb etishda hal etilishi lozim bo'lgan bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Kichik korxonalarning kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlari hamon cheklangan bo'lib, garov ta'minoti yetishmasligi, foiz stavkalarining yuqoriligi va moliyaviy savodxonlik darajasining nisbatan pastligi investitsiyalarni jalb etishga to'sqinlik qiladi. Bundan tashqari, investitsiyalarning hududlar va tarmoqlar bo'yicha notekis taqsimlanishi, ularning asosiy qismi yirik shaharlar va ayrim tarmoqlarga yo'naltirilishi mintaqaviy nomutanosiblikni keltirib chiqarmoqda. Sanoat va ishlab chiqarish tarmoqlarida kichik biznesning ulushi 26,4 foiz, xizmat hamda qishloq xo'jaligi sohalariga nisbatan ancha past bo'lib qolayotgani sohaga, ayniqsa, ishlab chiqarish yo'nalishidagi investitsiyalarni jalb etish zaruratini kuchaytiradi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning kichik biznesga





yo'naltirilgan qismini ko'paytirish, mahalliy va xorijiy investorlar uchun teng hamda barqaror shart-sharoitlar yaratish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish investitsiyalarni jalb qilishning ilmiy asoslangan, kompleks mexanizmini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Investitsiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik iqtisodiy nazariyada keng asoslangan bo'lib, kichik biznes misolida bu bog'liqlik yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar yangi ish o'rinlarini yaratish, mehnat unumdorligini oshirish va ishlab chiqarish hajmini kengaytirish orqali yalpi ichki mahsulotning o'sishiga bevosita hissa qo'shadi. Kichik korxonalar investitsiyalardan nisbatan tezroq va samaraliroq foydalanish, ularni qisqa muddatda ishlab chiqarishga aylantirish qobiliyatiga ega bo'lganligi sababli, sohaga yo'naltirilgan har bir investitsiya birligi yuqori bandlik va daromad samarasini beradi. Shu bois kichik biznesni investitsiyalash davlatning iqtisodiy o'sish, bandlik darajasini oshirish va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha strategik maqsadlariga erishishning eng samarali vositalaridan biri sifatida baholanadi. Aynan shu nazariy-amaliy bog'liqlik kichik biznesga investitsiyalarni jalb etish masalasini iqtisodiy fanning dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylantiradi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Yuqorida keltirilgan tahlillar kichik biznes sohasiga investitsiyalarni jalb etish masalasi nafaqat amaliy, balki chuqur ilmiy-nazariy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi yarmidan ortiq ulushi, bandlik va savdodagi yetakchi mavqeyi, shuningdek uning investitsiyalarga bo'lgan yuqori ehtiyoji ushbu sohani moliyalashtirish va investitsiyalashning nazariy asoslarini, jahon tajribasini hamda milliy xususiyatlarni tizimli o'rganishni dolzarb vazifaga aylantiradi. Kichik biznes va investitsiya tushunchalarining iqtisodiy mohiyatini, ularning o'zaro bog'liqligini hamda investitsiyalarni jalb etishning amaldagi holati va istiqbollarini ilmiy jihatdan asoslash sohani rivojlantirishning samarali yo'nalishlari va mexanizmlarini belgilash imkonini beradi. Aynan shu jihatlar kichik biznes sohasiga investitsiyalarni jalb etish dolzarbligini, uning mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashdagi nazariy va amaliy ahamiyatini belgilab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <http://stats.oecd.org/>
2. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег / Пер. сангл. проф. Н.Н.Любимова, под. ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова. – М.: МИЭМП, 2010.
3. Портер М.Э. Конкуренция / пер. с англ. – М.: Изд. Дом «Вильямс», 2005. – 808 с.
4. Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия [Текст]/ Й. Шумпетер: пер. с англ. предисл. В.С.Автономова. – М.: ЭКСМО, 2007. – 864 с.





5. Маршалл А. Принципы экономической науки/ А.Маршалл: В 3 т. - М.: Прогресс-Т.3. 1984. - 119 с.

6. Regional labor markets. Analitical contributions and cross-national comparisons. Ed. by. M.Fischer and P.Nijkamp. – Elsevier Science Publishing Co, 1987. – 500 p.

7. Пигу А. Экономическая теория благосостояния/ Пигу А.: В 2 т. - М.: Прогресс - Т.2- 1985. – 240 с.

8. Друкер П. Бизнес и инновации [текст] / п. Друкер: Пер. с англ. – М.: Вильямс, 2007. - 350 С.; Управление и организация в сфере услуг: теория и практика: Service Management and Operation – 2-е международ. изд. (пер. с англ. под науч. ред. В.В.Кулибановой) / К.Х.Хаксевер, Б.Р.Рендер, Р.С.Рассел, Р.Г.Мердик. – СПб, 2002. – 751 с.

9. Эренберг Р.Д., Смит Р.С. Современная экономика труда. Теория и государственная политика/ Пер. с англ. – М., 1996, 34-б.



Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati" ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**